

Xorazm Ma'mun akademiyasining xalqaro hamkorlik yo'lidagi yana bir muhim qadami

Xorazm Ma'mun akademiyasiga Bolgariya Respublikasining "PAULOWNIA BG" MChJ rahbari Jan DURALOV hamda Fanlar akademiyasi Navoiy bo'limi delegatsiyasi tashrif buyurdi. Tashrif davomida Ma'mun akademiya rahbariyati, ilmiy xodimlar hamda yosh tadqiqotchi olimlar ishtirokida uchrashuv tashkil etildi. Martabali mehmonga akademiya tarixi, hozirgi kunda olib borilayotgan tadqiqot ishlari hamda kelgusida rejalashtirilgan tadqiqot ishlari bilan tanishtirildi. Uchrashuv mobaynida Xorazm Ma'mun akademiyasi hamda "PAULOWNIA BG" MChJ o'rtasida hamkorlik memorandumini imzolandi. Ushbu hamkorlik memorandumida mintaqaning ekologik muammolarini hal etishga qaratilgan qo'shma ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish yo'nalishlarida o'zaro sheriklik va hamkorlikni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash, shuningdek, tenglik va o'zaro manfaatdorlik tamoyillariga asoslangan innovatsion g'oyalarni qo'llab-quvvatlash, tomonlar o'rtasida do'stona munosabatlar va tajriba almashishni yanada mustahkamlash va rivojlantirish kelishib olindi. Uchrashuvdan so'ng mehmonlar akademiya laboratoriyalari, ularda olib borilayotgan tadqiqot ishlari bilan, kutubxona hamda "Xorazm tarixi va madaniyati" doimiy ekspozitsiyasi faoliyati bilan yaqindan tanishishdi.